TADBIRKORLARGA KO‘RSATILADIGAN SUG‘URTA XIZMATLARI

KREDITLARNI SUG‘URTALASH

Qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasida belgilangan shartlarda va muddatlarda asosiy kredit qarzini (foizlar, jarima, ustama, sud xarajatlari bundan mustasno) mazkur shartnomada ko‘zda tutilgan kutish davri tugagandan so‘ng Sug‘urta qildiruvchiga qaytarmasligi bo‘yicha majburiyatlarni bajarmasligi to‘lovlarni uzoq muddat to‘lamaslik deb tan olinadi. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan kutish davrining so‘nggi kunidan keyingi kun uzoq muddatli to‘lamaslik kunining boshlanishi sug‘urta hodisasi deb hisoblanadi.

Tadbirkorlar tomonidan kredit ta’minoti to’liq mavjud bo’lgan holda kredit olish Sxemasi

2

Tadbirkor bankdan kredit olishi uchun kredit ta’minoti kerak bo’ladi.
Kredit ta’minoti quyidagilar bo’lishi mumkin:
- Mol-mulk yoki transport vositasi;

Jismoniy shaxclarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun tijorat banklariga murojaat etiladi.

1

Kredit oluvchi

3

Tadbirkor sug’urta polisini olish uchun Sug’urta tashkilotiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:
Ariza-anketa;
Kredit shartnomasi nusxasi;
Garovga qo’yilayotgan mulk yoki transport vositalarini bank va tadbirkor o’rtasida kelishilgan baholash dalolatnomasi.

4

СУҒУРТА ТАШКИЛОТИ

Sug’urta tashkiloti va tadbirkor hamda bank bilan sug’urta shartnomasi imzolanadi. Tadbirkor tomonidan sug’urta shartnomasida ko’rsatib o’tilgan sug’urta mukofotini to’lagandan so’ng, Sug’urta tashkiloti sug’urta polisini taqdim etadi.

Tadbirkorlar tomonidan kredit ta’minoti to‘liq mavjud bo‘lmagan holda kredit olish Sxemasi

Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun tijorat banklariga murojaat etiladi.

1

Kredit oluvchi

2

Tadbirkor bankdan kredit olishi uchun kredit ta’minoti kerak bo‘ladi.
Kredit ta’minoti quyidagilar bo‘lishi mumkin:
tadbirkor tomonidan kredit miqdorining ma’lum qismi garovga qo‘yilayotgan mulk yoki transport vositalari bo‘lishi mumkin;
tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi kafolati tomonidan ajratilayotgan kreditni jamg‘arma kafilligi bilan;
kreditlarni sug‘urtalash polisi.

3

Tadbirkor sug‘urta polisini olish uchun Sug‘urta tashkilotiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:
ariza-anketa;
kredit shartnomasi nusxasi;
garovga qo‘yilayotgan mulk yoki transport vositalarini bank va tadbirkor o‘rtasida kelishilgan baholash dalolatnomasi nusxasi;
tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi kafolatini kafillik shartnomasi nusxasi.

4

Sug‘urta tashkiloti va tadbirkor hamda bank bilan sug‘urta shartnomasi imzolanadi. Tadbirkor tomonidan sug‘urta shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan sug‘urta mukofotini to‘lagandan so‘ng, Sug‘urta tashkiloti sug‘urta polisini taqdim etadi.

СУҒУРТА ТАШКИЛОТИ

TADBIRKORLAR UCHUN
MAJBURIY SUG‘URTA TURLARI

TRANSPORT VOSITALARI EGALARINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG‘URTALASH

ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG‘URTA QILISH

TASHUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG‘URTA QILISH

SUG‘URTA SUMMASI – 44 000 000 so‘m

MOL-MULKKA – 4 000 000 so‘m

HAYOTIGA – 40 000 000 so‘m

TASHUVCHI

shahar yo‘lovchilar transportida, temir yo‘l, havo, avtomobil, daryo transportida va boshqa transportda yo‘lovchilarni hamda ularning mol-mulkini tashish bo‘yicha tijorat asosida xizmatlar ko‘rsatuvchi va buning uchun maxsus ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo‘lgan yuridik shaxs.

XAVFLI ISHLAB CHIQARISH OBYEKTIDA AVARIYA YUZ BERGAN TAQDIRDA BOSHQA SHAXSLARNING HAYOTI, SOG‘LIGI VA (YOKI) MOL-MULKIGA HAMDA ATROF-MUHITGA ZARAR YETKAZGANLIK UCHUN FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG‘URTA QILISH

SUG’URTA SUMMASI

Xavfli obyekt turi	Bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan teng
Birinchi	250 000
Ikkinchi	50 000
Uchunchi	10 000

SUG‘URTA HODISASI

xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo‘lganda boshqa shaxslarning hayoti, sog‘ligi va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazilganligi uchun sug‘urtalanuvchining fuqarolik javobgarligining boshlanish fakti

QURILISH TAVAKKALCHILIKLARINI SUG‘URTA QILISH

IXTIYORIY

tomonlarning kelishuviga asosan qurilish ishlari sug‘urtaviy himoyaga olinadi

MAJBURIY

obyektlarni davlat mablag‘lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini majburiy sug‘urta qilish

Mol-mulk sug‘urta turlari tavakkalchiliklari

nuqsonli materiallar va konstruktsiyalarni o‘z-o‘zidan (ongsiz ravishda qo‘llashdan) ko‘rilgan zarar

qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda uchinchi shaxslar oldida fuqarolik javobgarligining paydo bo‘lishi

TADBIKORLAR AVTOTRANSPORT VOSITALARINI KOMPLEKS SUG‘URTALASH

1 **Avtotransport vositasining nobud bo‘lishi yoki shikastlanishi**

Sug‘urtalangan transport vositalari, o‘zi yurar mashinalar va mexanizmlarni olib qochib ketish, o‘g‘irlash, yong‘in, portlash, buyumlarning zarbasi, yo‘l-transport hodisasi (YTH), uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari va tabiiy ofatlar natijasida yuz bergan jismoniy yo‘qotilishidan yoki shikastlanishidan bevosita zararlarni qoplab beradi.

2 **Uchinchi shaxslarning hayotiga, sog’lig’iga va mol-mulkiga zarar yetkazilishi (Haydovchining avto fuqarolik javobgarligi)**

Sug‘urtalangan avtotransport vositasidan foydalanishda uchinchi shaxslarning hayotiga, sog‘ligiga va mol-mulkiga zarar yetkazilishi (Haydovchining avtofuqarolik javobgarligi).

3 **Haydovchi va yo‘lovchilar bilan baxtsiz hodisalar**

Sug‘urtalangan avtotransport vositasi bilan sug‘urta hodisasi oqibatida baxtsiz hodisa yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan haydovchining va/yoki yo‘lovchilarning hayotiga yoki sog‘ligiga zarar yetkazilishi

TADBIRKORLARNING GAROVGA QO‘YILAYOTGAN MOL-MULKINI, TRANSPORT VOSITALARINI SUG‘URTALASH

- BINO
- INSHOOTLAR
- JIXOZLAR
- USKUNALAR
OMBORDAGI MULKLAR

- YENGIL AVTOMOBILLAR
- YUK MASHINALARI
- QURILISH TEXNIKALARI
- QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNIKALARI

MOL-MULK

TRANSPORT VOSITALARI



TADBIRKORLARNING LIZINGGA BERILAYOTGAN MOL-MULKINI, TRANSPORT VOSITALARINI SUG‘URTALASH

RISKLAR

- Tabiiy ofatlar
- Yo‘l-transport hodisasi
- Olib qochib ketish
- Portlash
- Yong‘in
- Uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari
- Buyumlarning zarbasi
- O‘g‘irlash

YO‘LDAGI MULKNI SUG‘URTALASH

SUG’URTA HODISASI

Sug‘urta obyekti tadbirkorlarning tashish usuli qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, tashilayotgan mol-mulkning shikastlanishi yoki nobud bo‘lishi (yo‘qotilishi)ga olib kelgan va Sug‘urtalovchida sug‘urta tovonini to‘lash majburiyati paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lgan voqea

- Yuk
- Bagaj

Mol-mulk sifatida turli transport vositalari (temir yo‘l transporti, avtotransport, aviatransport),
tovarlar va boshqalar.

Mol-mulk sug‘urtasi tavakkalchiliklari

Kema halokati

Temiryo‘l tashish vositalarining halokati

Havoda tashish vositalarining halokati

KASBIY JAVOBGARLIGINI SUG’URTALASH

BAHOLOVChILAR

ADVOKATLAR

RIELTORLAR

AUDITOR

BOJXONA BROKERLARI

NOTARIUS

VA BOSHQA KASB EGALARI

Sug‘urta summasi (javobgarligi) tomonlar o‘rtasida kelishilgan holda amalga oshiriladi

TADBIKORLAR ISHCHI XODIMLARINI KOLLEKTIV BAXTSIZ HODISALARDAN SUG'URTALASH

Ishchi xodimlar ish jarayonida bo'lgan vaqtdagi har qanday yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli baxtsiz hodisalardan sug'urtalanadi.

Barcha xodimlar korxona tomonidan bir yo'la sug'urta qilinadi.

- Baxtsiz hodisa
- Elektr toki urishi
- Suyak chiqishi, sinishi
- Sovuq urishi
- Kuyish
- Turli ovqatlardan zaharlanish
- Tabiiy ofatlar natijasida zararlanish

KASALLIKDAN EHTIYOT SHART SUG'URTALASH



Kompaniya sug'urta davri mobaynida sug'urtalangan shaxs kasal bo'lganda yoki sog'ligi izdan chiqqanda xarajatlar uchun belgilangan pul mablag'ini to'lab beradi.

Sug'urta tarifi (yillik) sug'urta summasidan 0,6 % dan boshlanadi

Kasal bo'lgan har bir kuni uchun (franshizadan tashqari) sug'urta summasidan 0,5% miqdorida

INFEKTSION KASALLIKLARDAN SUG'URTALASH

- virusli gepatit, A va B turdagi virusli gepatit, salmonellez,
- botulizm, difteriya, ovqatdan zaharlanish, qoq shol
- infeksion deb aniqlangan gepatitning boshqa turlari

IXTIYORIY TIBBIY SUG’URTA

Sug‘urta qildiruvchi tomonidan tanlangan sug‘urta dasturi doirasida Sug‘urtalangan shaxs kasal bo‘lganda tibbiy muassasalardan maslahat olishi, davolanishi, dori-darmon va boshqa xarajatlari kompaniya tomonidan tibbiy muassasaga to‘lab beriladi.

- Kasal bo‘lishi natijasida tibbiy muassasadan tashxis olish
- Statsionar yoki ambulator davolanish
- Dori-darmon xarajatlari
- Tish og‘rig‘ini davolash
- Shifokorni uyiga chaqirish
- Emlash va boshqalar

CHET ELGA CHIQUVCHI SHAXSLARNI SUG’URTALASH

Chet elga chiquvchi shaxslar chet elda bo‘lgan davrda sog‘ligi bilan bog’liq muammolar yuzaga kelganda o‘sha joydagi tibbiy muassasalarga murojaat etib sog‘liqlarini tiklashlari mumkin.

Xarajatlar kompaniya tomonidan qoplanadi:

Xorijiy hamkor tomonidan tibbiy muassasaga pul mablag‘lari o‘tkazib beriladi.

Mijoz o‘zi to‘lab, tasdiqlovchi hujjatlarni yurtga qaytganda kompaniyaga taqdim etsa mijozga to‘lab beriladi.

XULOSA

- Tadbirkorlar bilan bog‘liq ko‘ngilsiz hodisalarda sug‘urta tomonidan moliyaviy yordam beriladi;
- Majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha doim jabrlanuvchilarning ko‘rgan zarari sug‘urta tomonidan qoplanadi;
- Hududlarda joylashgan sug‘urta kompaniyalari filiallari tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari mahalliy byudjetni oshirishda (moliya tashkilotlarida pul oqimlari oshishida) yordam beradi;
- Hududlarda yig‘ilayotgan sug‘urta mukofotlarining oshishi kompaniyalar tomonidan to‘lanadigan soliqlar hajmini oshishiga, shuningdek, bu orqali xodimlar sonining oshishi ijtimoiy rivojlanish va ulardan olinadigan soliqlar hajmining ortishiga olib keladi;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining uzluksiz (moliyaviy yo‘qotishlarsiz) faoliyat yuritishini ta’minlashda yordam beradi;
- Ekport kontraktlarini sug‘urtalash orqali eksport qilishning optimal varianti yaratiladi;
- Yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga va hududlarda sug‘urta bozorining professional ishtirokchilarining kirib kelishini ta’minlaydi.